



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish

Nurmatova Madina Odiljon qizi

Qo'qon DU v.b. dotsenti.

Islomova Maxsudaxon Axrorjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya . Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari yoritilgan Shuningdek, axloq, ma'naviyat, ularning o'zaro bog'ligi ,xulq-atvor va tarbiyani shakllantirishda metodlardan foydalanish va shu kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ,shaxs kamolotidagi o'rni tahlil qilingan. Boshlang'ich ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishning samarali usullari, pedagogik shart-sharoitlari va tarbiyaviy imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. O'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, axloqiy me'yorlarga rioya qilish hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: axloq,ma'naviyat, tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tushunchalar, ma'naviy-axloqiy xulq-atvor,ma'naviy axloqiy tarbiya metodlar.

Boshlang'ich ta'lim- uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki va eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning savodxonligi shakllanadi,mustaqil fikrlash, o'qish, yozish ko'nikmalari rivojlanadi.Boshlang'ich sinflarda olingan bilim va malakalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Axloq va ma'naviyat chuqur ichki o'zaro aloqadorlikka ega. Zero, ma'naviyat individ mansub bo'lgan guruhlar axloqi ta'sirida yuzaga keladi, axloq esa ,o'z navbatida ,guruh a'zolari bo'lgan individlar ma'naviyatning o'zaro tutash ommaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Axloq- ma'naviyatning tarbikiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi hisoblanadi. Axloq,axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Axloq(arabcha-xulq-atvor ma'nosini bildiradi)ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib,ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun qoidalar majmuidir. Ma'naviyat va axloq o'z navbatida tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni taqozo etadi. Ma'lumki, tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga

maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'u inson tomonidan ,uning voqea-hodisalar,kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi

Boshlan'ich ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning samarali mexanizmlaridan biri milliy qadriyatlar , xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy adabiyotlar va tarixiy merosdan foydalanishdir. Ushbu vositalar o'quvchilarning axloqiy ongini rivojlantirish, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik kabi tushunchalarni anglashiga yordam beradi.Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar,rolli o'yinlar va jamoaviy faoliyatlar orqali o'quvchilarning axloqiy qarashlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish mumkin.Ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda maktab, oila va mahalla hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ushbu ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligi natijasida o'quvchilarda barqaror axloqiy pozitsiya,fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faollik shakllanadi.Shu bilan birga tarbiya jarayonining tizimliliigi ,uzluksizligi va izchilligi ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari deganda, o'quvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga ,ulara madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni,shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullari yig'indisidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlarini shakllantirish metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

Ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish metodlari:hikoya ,tushuntirish,etik suhbat, izohlash,nasihat, o'git,ko'rsatma,namuna va boshqalar.

Ma'naviy –axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari:mashq,o'rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat ,topshiriq va hokazolar.

Ma'naviy-axloqiy motivatsiyani hosil qilishga doir metodlar: rag'batlantirish ,musobaqa,tanbeh berish kabilar.

Yosh avlodni ma'naviy –axloqiy jihatdan barkamol etib tarbiyalash har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mazkur yosh davrida bolalarda atrof-muhit, jamiyat va insonlar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllanadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligi bir qator omillarga bog'liq.Jumladan ta'lim mazmunining tarbiyaviy yo'nalganligi,o'qituvchining kasbiy kompotentligi, oiladagi ma'naviy muhit hamda

maktab va oila hamkorligining yo'lga qo'yilganligi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyaviy ta'sirning uzluksiz va tizimli tashkil etilishi o'quvchilarning axloqiy qarashlari va xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda o'qituvchi shaxsining o'rni beqiyosdir, Pedagogning kasbiy mahorati, ma'naviy qiyofasi, nutq madaniyati va o'quvchilar bilan muloqot uslubi tarbiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar ko'pincha o'qituvchining xatti-harakatiga taqlid qilganligi sababli pedagogning shaxsiy namunasi tarbiyaviy ta'sirning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Ma'naviyat va axloqning o'zaro uyg'unligi o'quvchilarning dunyoqarashi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyani tizimli ravishda tashkil etish, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish, o'qituvchi hamda ota-onalarning hamkorligini kuchaytirish orqali o'quvchilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Natijada yosh avlodning ma'naviy yetuk, axloqan barkamol va Vatanga sadoqatli inson bo'lib voyaga yetishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev O'. Didaktik prinsiplar tizimida tarixiylik.-T.:Fan,2005.
2. Yo'ldoshev J. Hayot va tafakkur sayyorasi –T.:Fan, 1991.
3. Yo'ldoshev O'. Ta'lim nazariyasi asoslari.-T.:Fan ,2006.
4. B.X.Xodjeyev „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti “ pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun darslik „Sano-standart“ nashriyoti Toshkent-2017
5. O'.J.Yo'ldoshev , A.Ziyayev , M.Yusupov vb „Umumiy pedagogika“.-T.: „Fan va texnologiya“,2017
6. V.Mavlonov „Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari asosida o'quvchi-yoshlarda hushyorlik va ogohlik fazilatlarini rivojlantirish“ , “ Pedagogika “ TDPU2017/3
7. Nurmatova M. „History Of Origin And Social And Social And Pedagogical Need Of Tutor's Activity.International Bulletin of Applied Science and Technology,3(2023):151-154.
8. Nurmatova, M .O.Q. „Is'hoqxon Ibratning ilmi va ma'rifat sohasidagi xizmatlari.“Academic Research in Educational Sciences,3.NUU Conference 2(2022)
9. Нурматова ,М.О.К. „Психолого-педагогические особенности детей старшего дошкольного возраста.“Молодежь и XXI век(2015).
10. Нурматова ,М.,„Учитель-руководитель воспитание“. Актуальные научные исследования в современном мире,(2018)
11. Нурматова М. ‘Произведение „Одоб вс-салихин,,-настольная книга с вежливости и правил поведенияю“.Актуальные научные исследования в современном мире,(2018).